



11-noyabr 2023-yil.

82/01-359-son

"BEKTEMIR HILLS DEVELOPMENT"

E.F.Mamedovga

"Sizning 2023-yil 10-oktyabrdagi
5-sonli murojaatingiz"ga

Boshqarma tasarrufidagi Parkent-Qorasuv irrigatsiya tizim boshqarmasining 2023-yil 8-noyabrdagi 82/01-19-01-350-sonli javob xatiga asosan quyidagilarni ma'lum qiladi. Murojaatda ko'rsatilgan Toshkent shahri Bektemir tumani Iyk-Ota MFY Qanoat ko'chasida "BEKTEMIR HILLS DEVELOPMENT" ma'sulyati cheklangan jamiyati tomonidan ushbu yer maydonlarida zamonaviy uslubda qurilyotgan ko'p qavatli binoning kuz-qish mavsumida qor yomg'irsuvlarini tumanlaroro "Bektemir" kanaliga quyilishiga so'ralgan.

Murojaatga asosan Parkent-Qorasuv irrigatsiya boshqarmasi mutaxassisleri hamda "BEKTEMIR HILLS DEVELOPMENT" ma'sulyati cheklangan jamiyati loyiha bo'limi mutaxassisi bilan joyiga chiqib o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi 981-sonli qarorining 29-bandiga asosan "Bektemir" kanalining suvini muhofaza qilish zonasi 15-metr qilib belgilangan bo'lib, ushbu qarorning II-bob, 8-bandida tabiiy yer usti suv obyektlari bo'yicha loyixalarni ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish organlari buyurtmachiligida amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan. Yuqoridagi qarorning 60-bandida Suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, qurimaydigan soylar, shuningdek, suvi xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti ehtiyojlari uchun ishlatiladigan kanallarning suvni muhofaza qilish zonalarida quyidagilar taqiqlanadi: o'simliklar zararkunandalari va kasalliklariga, begona o'tlarga qarshi ishlatiladigan zaharli kimyoviy vositalarning har qanday turini qo'llash va ko'mish; markazlashgan kanalizatsiya tarmoqlari bo'lmagan yangi uy-joylar va turistik komplekslarni qurish; kanalizatsiya-tozalash inshootlarini va oqava suvlarning turli xil sig'implarini (to'plagichlarini) qurish;

suyultirilgan go'ngdan sug'orishda foydalanish transport vositalari va boshqa texnikalar uchun to'xtash joylari, yonilg'i-moylash materialarini quyish shaxobchalari, tuzatiladigan, yuviladigan va texnik qarovdan o'tkaziladigan joylar qurish;

qor qoplami ustidan o'g'it solish, tarkibida mahalliy go'ng bo'lgan oqava suvlarni zararsizlantirmasdan o'g'it sifatida foydalanish, shuningdek, tozalanmagan sanoat va xo'jalik-maishiy oqava suvlarni tashlash;

Suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar va qurimaydigan soylar hamda yer osti chuchuk suv hosil bo'ladigan hududlarning suvni muhofaza qilish zonalarida suvning holatiga ta'sir ko'rsatuvchi qurilish, kovlash, qirg'oqlarni mustahkamlash va portlatish ishlarini olib borish, foydali qazilmalar va suv o'tlarini olish, ularni qayta ishlash, quvurli tarmoqlar va kommunikatsiya kabellarini yotqizish, burg'ilash, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarni bajarish

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat sanitariya nazorati va «O'zdavergeodezkadastr» qo'mitasi hamda favqulodda vaziyatlar va suv xo'jaligi organlari bilan kelishilgan holda faqat mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ruxsati bo'yicha amalga oshiriladi.

Suv omborlari va boshqa suv havzalarining tegishli suv sathlari chizig'idan 2 kilometr masofagacha aviatsiya yordamida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va o'rmon fondi yerlariga zararli kimyoviy vositalarni sepish taqiqlanadi.

Sohil bo'yi mintaqasi doirasida ushbu Nizomning 60-bandida belgilangan cheklashlarga qo'shimcha ravishda quyidagilar ta'qiqlanadi:

suv xo'jaligi organlari, shuningdek, suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar roziligisiz hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ruxsatisiz qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish (yosh daraxt qatorlari orasiga ekilgan vaqtinchalik ekinlar bundan mustasno);

har qanday turdagi doimiy va vaqtinchalik bino va inshootlar, shu jumladan molxona, o'tinxona, hojatxona va boshqalar qurish (suv xo'jaligi inshootlarini qurish bundan mustasno);

mineral o'g'itlardan bo'shagan idishlarni saqlash va yo'q qilish; mineral o'g'itlarni transportda tashish va sepishda qo'llanilgan idishlar, mashina va asbob-uskunalarni tozalash va yuvish, jun, kanop va teri yuvish. Ushbu band qoidalari kanalizatsiya tizimiga yoki filtratsiyadan himoyalangan o'ralarga ulangan, avvaldan mavjud uy-joylar, ommaviy dam olish hududlari va turistik majmualar uchun tadbiq etilmaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib Murojaatda ko'rsatilgan Toshkent shahri Bektemir tumani Iyk Ota MFY Qanoat ko'chasida "BEKTEMIR HILLS DEVELOPMENT" ma'sulyati cheklangan jamiyati tomonidan ushbu yer maydonlarida zamonaviy uslubda qurilyotgan ko'p qavatli binoning kuz-qish mavsumida qor-yomg'ir suvlarini yopiq-yotiq quvurlar orqali tumanlaroro "Bektemir" kanalining texnik parametrlariga va suv o'tkazish qobiliyatiga zarar yetkazmagan holda qor-yomg'ir suvlarining quyilishiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrda 981-sonli qarorining 30-bandiga asosan Aholi punktlari doirasida daryo va qurimaydigan soylarning sohil bo'yi mintaqasining o'lchamlari shaharsozlik bosh rejasini e'tiborga olib, suv xo'jaligi, Bektemir tumani hokimiyati va tegishliligi bo'yicha boshqa organlar, bilan kelishilgan holda, Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi hech qanday e'tiroz bildirmasligini ma'lum qiladi.

Murojaatingizni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha ushbu javobdan qanoatlanmagan taqdiringizda, yuqori turuvchi davlat tashkilotlariga shikoyat qilish huquqingiz mavjudligini ma'lum qilamiz.

Boshqarma boshlig'i



B.Qurbonov

ijrochi: D.Tilavoldiyev
tel:70 700-77-35

